XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyul VI-144-86-7-105-K/24 Urgut tumani

Urgut tumanidagi nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risida.

Tumandagi nomsiz qabristonlar nomini nomlash, yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan qabristonlarni qayta nomlash to‘g‘risida taqdim etilgan xulosalar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-yil, 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-yil, 41-42-son, 483-modda), tuman komissiyasi takliflari hamda Respublika toponimika xizmatining 2024-yil 14-iyundagi 05/08-5845-sonli ekspertiza xulosalarini inobatga olib, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi navbatdagi oltinchi chqiriq bir yuz qirq to‘rtinchi sessiyasi.

QAROR QILADI:

1. Respublika toponimika xizmatining 2024-yil 14-iyundagi 05/08-5845-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Urgut tumanidagi nomsiz qabristonlar nomlari ilovaga, muvofiq tasdiqlansin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasiga nomlangan qabristonlarga peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Ochilov), tuman “Urgut sadosi” gazetasi tahririyati (A.Ziyodov)lar mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Yuldoshev) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (E.Murodullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

XUDAYKULOV
SHERALI
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-144-86-7-105-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Urgut tumanida nomlanayotgan qabristonlar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasi xulosasi
1	Qabriston	Kamardon MFY	Nomsiz	Toshqo'rg'on	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Qoldivoyjar MFY	Nomsiz	Do‘ngqo‘rg‘on	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Sanchiqul MFY	Nomsiz	Mangulik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	Bahrin MFY	Nomsiz	Tevaboshi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq